
Ta'zim sizga, aziz ustozlar!

Shu kunlarda yurtimiz bo'ylab 1 oktyabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni keng nishonlanmoqda. Sana munosabati bilan Rishton tumanidagi "Fayz" tantanalar saroyida bayram tadbiri bo'lib o'tdi.

Ustoz va murabbiylarni chin ma'noda millatimiz me'morlari, desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki, insoniyatning hayot yo'lini ilm nuri bilan yoritishda soha vakillarining xizmatlari beqiyos.

Tadbirda uzoq yillar yosh avlodga ilm va ma'rifat ulashib samarali mehnat qilib bugun xalqimiz ardog'ida bo'lgan ustozlar, ta'lim sohasi fidoiylari, tuman faollari va jamoatchilik vakillari jamul-jam bo'lishdi.

Bayram tadbirida tuman hokimi S. Soliev, tuman prokurori R. Madaliev, tuman Nuroniylar kengashi raisi T. Abdurahmonovlar so'zga chiqib, ta'lim-tarbiya sohasida mehnat qilayotgan barcha pedagog xodimlarni O'qituvchi va murabbiylar kuni bilan tabriklab, eng ezgu tilaklarini izhor qilishdi.

- Dunyoda shunday kasb egalari borki, ularsiz hayotimizni tasavvur qilish qiyin. O'qituvchilar esa hayotimiz charog'bonlaridir. Kim bo'lmaylik, qaysi sohada ishlamaylik, barchamizga muallimlar ta'lim va tarbiya berishgan. Hayot bor ekan, o'qituvchilik kasbi o'zining ma'no-mazmuni va olijanobligini, ahamiyati va hurmatini hech qachon yo'qotmaydi, deya soha xodimlariga yuksak baho berdi tuman hokimi.

- O'qituvchi – fidoi, kamtarin, ma'nan boy, ahloqan pok insondir. Ularni qancha e'zozlasak, hurmatlarini ado etsak arziydi. Chunki, ustozlar butun kuchlarini, aql-idroklarini, bilim va zehnlarni, qalb qo'rini shogirdlariga, demakki, millatning ertasi, taraqqiyotiga baxshida etadilar, dedi tuman prokurori o'z tabrik so'zida.

- O'qituvchilik sharafli va mas'uliyatli vazifa bo'lib, juda katta mehnat va fidoiyligni talab etadi. Sababi, bizning oldimizda farzandlarimiz kelajagi turibdi. Bayram tadbirida ishtirok etar ekanman, o'qituvchi va murabbiylarga berilayotgan e'tibordan juda xursand bo'ldim. Muhtaram Prezidentimizning e'tiborlari tufayli endi o'qituvchi va murabbiylar faqat yosh avlodni tarbiyalash, ularga puxta bilim berish bilan mashg'ul bo'lishmoqda, dedi tuman Nuroniylar kengashi raisi T. Abdurahmonov.

Tadbirda ta'lim-tarbiya jarayoniga salmoqli hissa qo'shgan bir guruh o'qituvchi va murabbiylarga tuman hokimining Faxriy yorliq va estalik sovg'alari topshirildi.

Bir piyola choy ustida davom etgan bayram tadbirida umumiy o'rta ta'lim maktabi madaniyat va musiqa fani o'qituvchilari hamda taniqli xonandalar Valijon Qodirov va Diyoraxon Muxotorovalar tomonidan taqdim etilgan kontsert dasturi ishtirokchilarga yuqori kayfiyat ulashdi.

Rishton tumani hokimligi Axborot xizmati

2022-09-29 16:09:29